

Artikova Muhayyo Botiraliyevna,

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Payg'amov Shoxrux Bahodirjon o'g'li,

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

TARIXIY MAVZULARNI TEATRLASHTIRISH: "REJISSURA VA IJODIY YOZUVLAR" METODI ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

UO'K: 378

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_1_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_1_5)

ARTIKOVA M.B., PAYG'AMOV SH.B. TARIXIY MAVZULARNI TEATRLASHTIRISH: "REJISSURA VA IJODIY YOZUVLAR" METODI ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ushbu maqolada Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi orqali tarixiy mavzularni teatrlashtirish asosida o'qitishning samaradorligi tahlil qilingan. Metodologiya talabalarning tarixiy bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda o'zlashtirishiga yordam beradigan innovatsion yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi.

Rejissura metodi talabalarni sahna kompozitsiyasi va qahramonlarning hissiy kechinmalari orqali tarixni jonlantirishga jalb qilsa, ijodiy yozuvlar metodi ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish va ssenariylar yaratishga yo'naltiriladi. Mazkur yondashuv talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoaviy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shaybonixon o'rtasidagi tarixiy munosabatlar misolida ushbu metodning qo'llanilishi va uning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri yoritib berilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklga aylantirish bilan birga, talabalarni faol, ijodkor va tahlil qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tayanch so'z va tushunchalar: rejissura metodi, ijodiy yozuvlar, teatrlashtirilgan ta'lim, tarixiy bilimlar, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shaybonixon, tanqidiy fikrlash, interaktiv ta'lim.

АРТИКОВА М.Б., ПАЙГАМОВ Ш.Б. ТЕАТРАЛИЗАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ТЕМ: ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕТОДА «РЕЖИССУРА И ТВОРЧЕСКИЕ СОЧИНЕНИЯ»

В этой статье проанализирована эффективность преподавания исторических тем на основе театрализации с помощью методов режиссуры и творческого письма. Методология рассматривается как инновационный подход, который помогает студентам овладеть историческими знаниями не только теоретически, но и на практике.

Если метод режиссуры привлекает студентов к возрождению истории через сценическую композицию и эмоциональные переживания героев, то метод творческих записей направ-

лен на анализ причинно-следственных отношений и создание сценариев между ними. Такой подход развивает у студентов навыки критического и творческого мышления, коллективного общения и позволяет глубже понимать исторические процессы.

В статье на примере исторических отношений между Захириддином Мухаммадом Бабуром и Мухаммадом Шайбаниханом показано применение этого метода и его положительное влияние на образовательный процесс. Исследование показывает, что метод режиссуры и творческого письма играет важную роль в формировании студентов как активных, творческих и аналитических личностей, а также в превращении учебного процесса в интерактивную и интересную форму.

Основные слова и понятия: метод режиссуры, творческие записи, театрализованное образование, исторические знания, Захириддин Мухаммад Бабур, Мухаммад Шайбанихан, критическое мышление, интерактивное образование.

ARTIKOVA M.B., PAYGAMOV SH.B. THEATRICALIZATION OF HISTORICAL THEMES: INCREASING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION BASED ON THE METHOD OF "DIRECTION AND CREATIVE ESSAYS"

This article analyzes the effectiveness of teaching historical themes based on theatricalization using the methods of directing and creative writing. The methodology is considered as an innovative approach that helps students master historical knowledge not only theoretically, but also in practice.

If the method of directing involves students in the revival of history through stage composition and emotional experiences of the characters, then the method of creative notes is aimed at analyzing cause-and-effect relationships and creating scenarios between them. This approach develops students' skills of critical and creative thinking, collective communication and allows them to better understand historical processes.

The article shows the application of this method and its positive impact on the educational process using the example of the historical relations between Zahiriddin Muhammad Babur and Muhammad Shaibanihan. The study shows that the method of directing and creative writing plays an important role in the formation of students as active, creative and analytical individuals, as well as in turning the educational process into an interactive and interesting form. Key words and concepts: directing method, creative writing, theatrical education, historical knowledge, Zahiriddin Muhammad Babur, Muhammad Shaibanihan, critical thinking, interactive education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu kontekstda "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodi talabalarga tarixiy voqealarni chuqurroq anglash, ularni sahnada jonlantirish orqali tushunish imkoniyatini beradi. Ushbu metod nafaqat ta'lim jarayonini samarali qilish, balki uni qiziqarli va ijodiy jarayonga aylantirish imkoniyatini taqdim etadi.

"Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi" yordamida tarixiy mavzularni teatrlashtirilgan shaklda o'rganishning ta'lim jarayonidagi samaradorligini o'rganish va uning imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat

kasb etmoqda¹. Ushbu yondashuv talabalarni tarixiy jarayonlarni faqat yodlash orqali emas, balki hissiy va ijodiy jihatdan anglashga undaydi, bu esa ularning o'quv jarayonidagi qiziqishini oshiradi.

Mavzuning dolzarbligi Zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv va ijodiy yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. An'anaviy ta'lim usullari talabalarning bilimlarni passiv qabul qilishiga olib kelib, ularni chuqur tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishdan cheklaydi. Bu esa ta'lim jarayonida qiziqishning pasayishi va bilimlarning vaqtinchalik bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodi dolzarb masala sifatida o'rganilishga arziydi. Mazkur metod

¹ Nosirov, D.T. "O'zbek adabiyotida dramaturgiya" // "San'atshunoslik" jurnali. – 2022. – №1. – B. 60-65.

o'quv jarayonini jonlantiruvchi va uni interaktiv shaklga aylantiruvchi innovatsion yondashuv bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu metod orqali talabalarga tarixiy voqealarni sahnalashtirish va ularni teatr shaklida aks ettirish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon ularga faqat faktlarni yodlash bilan cheklanmasdan, o'tmish voqealarining sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Talabalar nafaqat tarixni tahlil qiladi, balki sahnada jonlantirib, uni hissiy va intellektual jihatdan anglaydi. Bu esa bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, teatr elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarni ijodkorlikka, tanqidiy fikrlashga va yangi g'oyalarni shakllantirishga undaydi.

Metodning yana bir dolzarbligi shundaki, u talabalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga jalb qiladi. An'anaviy darslarda passiv kuzatuvchi rolini bajargan talabalar bu metod yordamida faollashib, o'quv jarayonining markaziga aylanadi. Bu, o'z navbatida, ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi va o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Teatrqa xos bo'lgan jamoaviy ish jarayoni esa talabalar o'rtasidagi muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu ko'nikmalar ularga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelgusidagi hayot faoliyatlarida ham qo'l keladi.

"Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodining dolzarbligi shundaki, u nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurroq anglash, balki ularni zamonaviy dunyo bilan bog'lash imkonini ham beradi. Talabalar o'zlari yozgan ssenariylar va ijro etilgan sahnalar orqali turli tarixiy shaxslar pozitsiyalarini o'zlashtiradi va voqealarning turli qirralarini tahlil qiladi. Bu jarayon ular uchun nafaqat o'quv, balki hissiy va intellektual tajribaga aylanadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

"Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodidan foydalanish bo'yicha xorijlik olimlardan Turkiyalik S. Gulin Karabag, Okan Aydogan, Brian Kisida, Laura Goodwin, Daniel H. Bowen, Kevin

A. Morrison, Pälvi Rantala va boshqa pedagog olimlar o'rganganlar.

Turkiyalik S. Gulin Karabag, Okan Aydogan "The Effect of History Teaching Supported by Dramatization Technique on Students' Achievement and Permanence Level" ilmiy ishi¹ doirasida ushbu metoddan tarix fanini o'qitish bo'yicha ko'plab tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Brian Kisida, Laura Goodwin, Daniel H. Bowen "Teaching History Through Theater: The Effects of Arts Integration on Students' Knowledge and Attitudes" ilmiy ishi² doirasida ushbu metoddan foydalanishda talabalarining mavzuni tushunish jarayonlarga ta'sirini o'rganadi.

Kevin A. Morrison, Pälvi Rantala "Historical Research, Creative Writing, and the Past" kitobida³ tarixiy ma'lumotlarni tinglovchiga tushuntirish bo'yicha ko'plab metod va texnologiyalarni tavsiya qilgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali tarixiy bilimlarni o'zlashtirishning yangi, innovatsion yondashuvini taklif qilishda namoyon bo'ladi. An'anaviy usullardan farqli ravishda, ushbu metod talabalarining o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali ularni hissiy va intellektual jihatdan chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Ushbu yondashuvning yangiligi shundaki, u tarixiy ta'limda san'at elementlarini (rejissura va dramatisatsiya) qo'llash orqali nafaqat bilimni o'zlashtirish samaradorligini oshirish, balki talabalarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga, hamkorlikda ishlashga va o'quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qilishga yo'naltiradi. Ilk bor ushbu metodning hissiy-intellektual o'zlashtirishga va bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga ta'siri nazariy va amaliy asosda tahlil qilingan.

¹ S. Gulin Karabag, Okan Aydogan. The Effect of History Teaching Supported by Dramatization Technique on Students' Achievement and Permanence Level. Asian Journal of Education and Training: 2021. – P. 36-45.

² Brian Kisida, Laura Goodwin, Daniel H. Bowen. Teaching History Through Theater: The Effects of Arts Integration on Students' Knowledge and Attitudes. Sage: 2021. – P. 59-63.

³ Kevin A. Morrison, Pälvi Rantala. Historical Research, Creative Writing, and the Past. – England.: "Bloomsbury Academic", 2023. – 72 p.

Tadqiqotning maqsadi “Rejissura va ijodiy yozuvlar” metodini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali tarixiy bilimlarni o’zlashtirish samaradorligini oshirish, talabalarning o’quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, tarixiy voqealarni hissiy va intellektual jihatdan chuqurroq anglash imkoniyatlarini o’rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti – ta’lim jarayonida “Rejissura va ijodiy yozuvlar” metodidan foydalanish orqali talabalarining tarixiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni va uning samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan o’quv faoliyati.

Tadqiqotda qo’llanilgan usullar.

Nazariy tahlil - Ilmiy adabiyotlar, pedagogik va metodik qo’llanmalar asosida “Rejissura va ijodiy yozuvlar” metodining nazariy jihatlari va uning ta’lim jarayoniga ta’siri o’rganilgan.

Amaliy kuzatuv - Ta’lim jarayonida ushbu metod qo’llanilganda talabalar faoliyatini kuzatish va ularning o’quv jarayonidagi ishtirokini tahlil qilish amalga oshirilgan.

Ekspirimental usul - «Rejissura va ijodiy yozuvlar» metodi qo’llangan va an’anaviy metodlardan foydalanilgan guruhlar bilan solishtirma tahlil o’tkazilib, usulning samaradorligi baholangan.

Intervyu va so’rovnoma - Talabalar va o’qituvchilardan olingan fikr va mulohazalar asosida metodning ta’lim jarayoniga ta’siri haqida ma’lumotlar yig’ilgan.

Statistik tahlil - Talabalar bilimlarini baholash natijalarini miqdoriy jihatdan qayta ishlash orqali metodning samaradorligi ilmiy asoslangan.

Asosiy qism.

An’anaviy ta’lim usullari talabalarni bilimlarni passiv tarzda o’zlashtirishga undaydi, bu esa ko’pincha tarixni chuqur tushunmaslik va faqat faktlarni eslab qolishga olib keladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarining o’quv jarayoniga faol ishtirokini ta’minlash va ularni tarixiy voqealarga bevosita bog’lash muhimdir¹.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi:

– talabalarni o’quv jarayoniga faol jalb qiladi;

– tarixiy voqealarni sahnada jonlantirish orqali ularni hissiy va intellektual jihatdan tushunishga imkon beradi;

– tarix darslarini qiziqarli va interaktiv shaklga aylantiradi;

– talabalarda ijodkorlik va jamoaviy ish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur metod yordamida tarixiy jarayonlar sahnalashtiriladi, talabalarga o’sha voqealarning muhitini his qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi bilan teatrlashtirilgan ta’lim yondashuvi talabalarni tarixiy jarayonlarni o’rganishda faol ishtirok etishga undaydi. Ushbu yondashuv uch asosiy bosqichni o’z ichiga oladi:

1. Ijodiy yozuvlar bosqichi. Talabalar tarixiy voqealarni tahlil qilib, ular asosida teatr ssenariysini yaratadi. Bu jarayonda ular tarixiy qahramonlar o’rniga qo’yilgan holda qaror qabul qilishni va o’sha davr muhitini tushunishni o’rganadilar.

2. Rejissura bosqichi. Talabalar ssenariyni sahnalashtirish jarayonida rejissura tamoyillarini qo’llaydi, rollarni taqsimlaydi, sahnani tayyorlaydi va qahramonlarning hissiy holatini aks ettiradi.

3. Refleksiya bosqichi. Teatrlashtirish jarayoni yakunida talabalar sahnalashtirilgan tarixiy jarayonlarni tahlil qiladi, voqealarning sabab-oqibatlarini baholaydi va zamonaviy dunyo bilan bog’laydi.

Mazkur yondashuv nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurroq o’zlashtirish, balki talabalarining ijodiy va analitik salohiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi orqali o’tkazilgan mashg’ulotlar tarixiy ta’lim jarayonini zamonaviy talab va ehtiyojlarga moslashtirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Rejissura – bu teatr san’atining markaziy elementi bo’lib, asarni tashkil etish va sahnalashtirish jarayonida tizimli yondashuvni talab qiladi. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish, ayniqsa, tarixiy mavzularni chuqur o’rganishda samarali hisoblanadi. Rejissura metodi talabalarining o’rganilayotgan mavzuni amaliy tarzda o’zlashtirishiga yordam beradi va tarixiy voqealarni sahnada jonlantirish orqali

¹ Соловьева Н. А. Методика преподавания литературы через театрализованное действие. – Казань: Казанский университет, 2015.

ularga hissiy va intellektual qiziqish uyg'otadi. Xususan:

1. *Sahna kompozitsiyasini yaratish.* Tarixiy voqealarni sahnalashtirish uchun dekoratsiya, qahramonlarning joylashuvi va harakatlari rejalashtiriladi. Bu talabalarni tarixiy jarayonning muhitini his qilishga undaydi.

2. *Qahramonlarning harakatlari va hissiy ifodasi.* Har bir talaba o'z rolidagi qahramonning hissiyotlarini ifodalash orqali o'sha davr muhitiga yaqinlashadi.

3. *Jamoaviy ishni tashkil etish.* Rejissura jamoa bilan ishlashni talab qiladi, bu esa talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro muloqotni rivojlantiradi.

O'qituvchi rejissyor sifatida talabalarni boshqaradi, ularga tarixiy voqealarni qanday tasvirlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Talabalar o'z rollarini ijro etadi va o'rganilayotgan voqealarni jonlantirishga harakat qiladi. Teatr jarayonida talabalar faqat faktlarni o'rganib qolmay, balki ushbu faktlarning insoniy va hissiy jihatlarini ham angelaydi. Ijodiy yozuvlar metodi talabalarni tarixiy mavzularni turli nuqtai nazarlardan o'rganishga va ulardan kelib chiqib yangi asarlarni yaratishga undaydigan yondashuvdir¹. Bu metod talabalarga tarixiy voqealarni tahlil qilish va ular asosida ssenariy, dialog va monologlar tuzish orqali ularga ijodiy yondashish imkonini beradi.

4. *Ssenariy yozish.* Talabalar o'rganilayotgan tarixiy voqealar asosida teatr uchun ssenariy yozadilar. Ushbu jarayon talabalarni voqealarni tahlil qilishga va ularning sabab-oqibatlarini aniqlashga undaydi.

5. *Dialog va monologlarni yaratish.* Tarixiy qahramonlarning o'zaro muloqotlari va hissiy nutqlari sahnani jonlantirish uchun yaratiladi. Bu talabalarni tarixiy jarayonlarga chuqurroq kirishish va ularning mohiyatini anglashga yordam beradi.

6. *Turli nuqtai nazarlarni ifodalash.* Talabalar turli tarixiy shaxslar pozitsiyasidan chiqish qiladilar, bu esa ularga voqealarni ko'p qirrali tahlil qilish imkonini beradi.

Ijodiy yozuvlar metodi qanday amalga oshiriladi? Talabalarga tanlangan tarixiy

mavzuga oid ma'lumotlar beriladi. Har bir talaba yoki guruh o'ziga berilgan qahramon yoki voqea asosida ijodiy yozuv mashqini bajaradi. Yaratilgan asarlar teatr uchun ssenariy sifatida ishlatiladi. Ya'ni:

1. *Talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.* Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi talabalarni o'rganilayotgan mavzular bo'yicha mustaqil fikr yuritishga undaydi. Ular tarixiy voqealarning chuqur sabablarini tushunish va ulardan yangi xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. *Tarixiy voqealarni chuqur anglash.* Bu metod tarixni faktlar yig'indisi sifatida emas, balki jonli va hissiy jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi. Talabalar tarixiy qahramonlar o'rniga qo'yilib, ularning hissiy va intellektual qarorlarini his qiladi.

3. *Jamoaviy ishni rivojlantirish.* Rejissura va ijodiy yozuvlar metodida talabalarning jamoaviy ishi muhim ahamiyatga ega. Ssenariy yozish, rollarni taqsimlash va sahnalashtirish jarayonida talabalar birgalikda ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. *Hissiy anglashni kuchaytirish.* Tarixiy qahramonlarning rollarini ijro etish orqali talabalar tarixni o'z hissiy tajribalari orqali o'rganadilar, bu esa bilimlarning yanada samarali va uzoq muddatli saqlanishiga yordam beradi.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodining qo'llanilishi talabalarni tarixiy voqealarga hissiy va intellektual jihatdan yaqinlashtiradi. Ushbu yondashuv tarix darslarini nafaqat qiziqarli qiladi, balki ularda chuqur bilim olish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodologiya tarixiy ta'lim jarayonini yangilash va uni talabalarning ehtiyojlariga moslashtirishda innovatsion vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shaybonixon munosabatlari mavzusini Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi orqali tushuntirish.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi – o'quvchilarni tarixiy voqealarni chuqur tahlil qilishga undovchi ijodiy o'qitish usuli. Ushbu metod orqali talabalar o'tmishdagi tarixiy shaxslar va voqealarning sabab-oqibatlarini

¹ Фролов В.Г. Театральные методы в обучении истории // Педагогическое мастерство. – 2018. – №. 5. – С. 98-103.

tushunib, tushunchalari bo'yicha o'zlari teatr sahnalarini ssenariylarini yozib chiqadilar va ularni sahna ko'rinishlari orqali aks ettiradilar.

I. Tayyorlov bosqichi:

– o'qituvchi Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shaybonixon o'rtasidagi munosabatlarning qisqacha tarixiy asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni tushuntiradi:

– Shayboniyar davlatining kuchayishi va Movarounnahrda hukmronlik qilish istagi. Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona va Samarqand ustidan nazoratni tiklashga intilishi.

Asosiy sahnalashtiruvchi voqealar:

– Shaybonixonning Samarqandni egallashi (1500-yil) va Boburning hokimiyatni yo'qotishi;

– Ikki shaxs o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar (masalan, 1501-yil Saripul jangida Boburning mag'lubiyati);

– Shaybonixonning g'alabalari orqali Movarounnahrda mustahkamlanishi va Boburning Hindiston tomon safarga chiqishi.

Munozarali munosabatlar. Bu ikki shaxsning o'zaro siyosiy raqobati, Bobur va Shaybonixonning davlat qurilish strategiyalari, hamda ularning shaxsiy va siyosiy ta'sirlari.

II. Ssenariy yozish bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratib chiqadi va har bir guruhga sahnaning muayyan qismi topshiriladi:

1-guruhga 1-sahna: Bobur Samarqandni egallash uchun olib borgan harakatlari.



2-guruhga 2-sahna: Shaybonixonning Samarqandni zabt etishi va Boburning muhojirlikdagi ahvoli.



3-guruhga 3-sahna: Ikki shaxsning qarama-qarshiligi – jang maydoni, harbiy strategiyalar va shaxsiy ambitsiyalar.



4-guruhga 4-sahna: Boburning Hindistonga safarga chiqishi va Shaybonixonning siyosiy muvaffaqiyatlari.



Kichik guruhlardagi talabalar ushbu sahnalar uchun ssenariy yozadi, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- tarixiy voqealarning sabab va oqibatlari;
- Bobur va Shaybonixonning siyosiy qarashlari va xarakter xususiyatlari;
- janglar, muzokaralar yoki monologlar orqali dramatik lahzalarni aks ettirish.



III. Spektakl tayyorlash bosqichi (Ssenariy yozish bosqichi):

– har bir guruh ssenariy asosida o‘z sahnasini tayyorlaydi.



Rollarni taqsimlash: kim Bobur, kim Shaybonixon bo‘lishini belgilash, shuningdek, yordamchi rollarni taqsimlash (masalan, maslahatchilar, askarlar, xalq vakillari).



Dekoratsiyalar va rekvizitlar. Har bir sahna uchun dekoratsiyalar (Samarqand ko‘rinishi, jang maydoni, saroy) va rekvizitlarni (qurol-yarog‘, xatlar, bayroqlar) tayyorlash.

Repetitsiyalar. Guruhlar o‘z sahnalarini sahnalashtiradi va o‘z chiqishlarini mukammallashtirishga intiladi.

IV. Spektaklni namoyish qilish:

– guruhlar ketma-ket o‘z sahnalarini namoyish qiladi, ular birgalikda Bobur va Shaybonixon munosabatlarining yaxlit tarixiy kartinasini aks ettiradi;

– namoyish davomida tomoshabin talabalarga topshiriq, ya‘ni har bir sahna davomida sabab va oqibatlarini kuzatish, shaxsiy xarakter va siyosiy qarashlarni tahlil qilishga e‘tibor qaratish.



5. Tahliliy muhokama bosqichi.

Savollar orqali tahlil:

5.1. Bobur va Shaybonixon munosabatlarining Movarounnahr tarixidagi roli qanday edi?

5.2. Ularning shaxsiy va siyosiy maqsadlari qanday farqlangan?

5.3. Shaybonixonning g‘alabalari va Boburning Hindistonga yo‘l olishining tarixiy ahamiyati nimada?

5.4. Ushbu tarixiy munosabatlarning bugungi kunga qoldirgan saboqlari nimada?

Spektaklni muhokama qilish: Qaysi guruh ssenariysi tarixiy voqealarni yaxshiroq aks ettirdi? Qaysi ijro qiziqarliroq va ta‘sirchanroq bo‘ldi?

6. Refleksiya:

– o‘quvchilar spektakl yaratish jarayonida nimani o‘rganganlarini baham ko‘radi;

– ular bu voqealar haqida qanday yangi bilim va tushunchalarga ega bo‘lishganini muhokama qiladi.

Metodning afzalliklari:

– **tarixni jonlantirish.** Tarixiy voqealarni ssenariy yozish va sahnalashtirish orqali o‘quvchilar tarixni chuqurroq anglaydi;

- **ijodiy fikrlashni rivojlantirish.** O'quvchilar o'z tasavvurlarini ishlatib, dramatik va tarixiy jihatlarni uyg'unlashtiradi;

- **faol ishtirok.** Har bir talaba jarayonga faol jalb qilinadi, bu esa bilimlarni mustahkamlaydi;

- **tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish.** Talabalar sabab-oqibat tahlilini o'rganadi va tarixiy shaxslarning qarorlarini yaxshiroq tushunadi.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi orqali o'quvchilar Bobur va Shaybonixon o'rtasidagi murakkab munosabatlarni nafaqat tushunadi, balki ularni ijodiy tarzda aks ettirishga qodir bo'ladi. Bu metod orqali tarix nafaqat bilim, balki ijod va tahlil imkoniyati sifatida o'rganiladi.

Rejissura va ijodiy yozuvlar metodi asosida teatrlashtirilgan ta'lim yondashuvi tarixiy bilimlarni o'zlashtirishda sezilarli samaradorlikni namoyon etadi. Ushbu metod talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, tarixni hissiy va amaliy jihatdan anglash imkoniyatini yaratish orqali ta'limni qiziqarli va interaktiv shaklga aylantiradi.

Tarixiy mavzularni teatrlashtirish orqali talabalar voqealarning sabab-oqibat aloqalarini yaxshiroq tushunishdi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shaybonixon o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshilikni sahnalashtirish jarayonida talabalar nafaqat faktlarni, balki bu qarama-qarshilikning tarixiy kontekstini chuqurroq o'rganishdi. Ssenariy yozish va sahnalashtirish jarayonida talabalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishdi. Turli nuqtai nazarlarni yoritish orqali ular tarixiy jarayonlarni tahlil qilish va ularga tanqidiy yondashishni o'rgandilar.

Tarixiy shaxslarning rollarini ijro etish talabalarni o'tmish voqealariga hissiy jihatdan yaqinlashtirdi. Bu esa bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam berdi. Guruh bo'lib ishlash talabalarni o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va jamoaviy qarorlar qabul qilishga undadi. Bu esa ularga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham qo'l keladigan ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qildi. An'anaviy usullar bilan solishtirganda, teatrlashtirilgan ta'lim talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undadi. Teatr

elementlari darslarni qiziqarli qilib, talabalarni darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Umuman olganda, "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodi orqali o'quvchilar tarixni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliyotda jonli ravishda o'rganish imkoniga ega bo'ldilar. Bu yondashuv ularning bilimni qo'llash qobiliyatini rivojlantirdi.

Xulosalar:

Mazkur tadqiqotda "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodining ta'lim jarayonida qo'llanilishi tarixiy bilimlarni o'zlashtirishning innovatsion va samarali yondashuvi sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu metod talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, tarixni nafaqat nazariy bilim sifatida, balki jonli va hissiy jihatdan anglash imkonini beradi.

Metodning qo'llanilishi talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda, tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali ularni uzoq muddatli xotirada saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantirib, ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklga aylantiradi.

Tadqiqotda ushbu metodning hissiy-intellektual o'zlashtirishga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Eksperiment natijalari metodning an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorligini ko'rsatdi, bu esa uni ta'lim tizimiga keng joriy qilish zarurligini tasdiqlaydi.

"Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodi ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishda va o'quvchilarning bilim olish jarayonini boyitishda innovatsion yondashuv sifatida muhim o'rin tutadi. Ushbu metod ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar:

- Ta'lim jarayonida "Rejissura va ijodiy yozuvlar" metodini kengroq qo'llash uchun o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va bu metodni zamonaviy tarix va adabiyot fanlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

- Ushbu metoddan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil qilish zarur. Bu ularga rejissura va ijodiy yozuvlar asoslarini o'rgatib, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash ko'nikmasini beradi.
- Metodning imkoniyatlarini faqat tarix yoki adabiyot bilan cheklamay, uni boshqa fanlarga, masalan, ijtimoiy fanlar, san'at yoki hatto texnika fanlarida qo'llash bo'yicha izlanishlarni davom ettirish tavsiya etiladi.
- Sahnalashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, multimedia va virtual reallik vositalaridan foydalanish talabalar uchun jarayonni yanada jonli va ta'sirchan qiladi.
- Metodning ta'lim jarayonidagi samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish va uni turli yosh guruhlar va ta'lim darajalarida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish uchun keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak.
- Metodni qo'llashni osonlashtirish uchun maxsus metodik qo'llanmalar, darsliklar va sahnalashtirish bo'yicha namuna ssenariylar ishlab chiqish tavsiya etiladi.
- Ushbu metodni qo'llash jarayonida talabalar fikrini tahlil qilish va ularning takliflarini hisobga olgan holda metodni takomillashtirish tavsiya etiladi.
- Metodni sinf darajasida sinovdan o'tkazish orqali uning turli sharoitlarda qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov B. "O'zbek dramaturgiyasi rivojlanish bosqichlari" // "O'zbek adabiyoti tarixi" jurnali. – 2018. – №3. – B. 45-50.
2. Nikolaeva A.B. "Biografik reflektiv tarix zamonaviy olim hayotiy tasvirining transformatsiyasi natijasi sifatida" // "Omsk universiteti axborotnomasi." – 2019. – T. 24. – №2. – B. 135-140.
3. Nosirov D.T. "O'zbek adabiyotida dramaturgiya" // "San'atshunoslik" jurnali. – 2022. – №1. – B. 60-65.
4. Sodiqov M. "O'zbek teatrining rejissura san'ati." – T.: O'zbekiston, 2005.
5. Громов Л.В. Основы театральной педагогики. – М.: Академия, 2001.
6. Николаева А.Б. Биографическая рефлексивная история как результат трансформации современного жизнеописания ученого // Вестник Омского университета. – 2019. – Т. 24. – №. 2. – С. 135-140.
7. Соловьева Н.А. Методика преподавания литературы через театрализованное действие. – Казань: Казанский университет, 2015.
8. Фролов В.Г. Театральные методы в обучении истории // Педагогическое мастерство. – 2018. – №. 5. – С. 98-103.
9. Шендерович А.С. Роль театра в образовательном процессе. – СПб.: Питер, 2009.
10. S. Gulin Karabag, Okan Aydogan. The Effect of History Teaching Supported by Dramatization Technique on Students' Achievement and Permanence Level. Asian Journal of Education and Training: 2021. – P. 36-45.
11. Brian Kisida, Laura Goodwin, Daniel H. Bowen. Teaching History Through Theater: The Effects of Arts Integration on Students' Knowledge and Attitudes. Sage: 2021. – P. 59-63.
12. Kevin A. Morrison, Pälvi Rantala. Historical Research, Creative Writing, and the Past. – England.: "Bloomsbury Academic", 2023. – 72 p.